

TABIATSHUNOSLIK DARSLARIDA ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARNI NUTQINI RIVOJLANTIRISH

Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li

Qo'qon DPI Maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ichki va tashqi nutq.ularning hosil bo'lishi, dialogik yoki monologik nutqning shakillanish jarayonlari haqida yoritilgan. Bundan tashqari eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini o'stirish maqsadiga ma'lum vaziyatda paydo bo'ladigan dialogik va suhbatning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ichki nutq, tashqi nutq, fikr, dialogik nutq, monologik nutq, nutqiy muloqot, nutq o'stirish, daktil nutq, tayyorlov, kommunikatsiya.

Bizga bilamizki nutq birinchi navbatda ichki va tashqi nutqga bo'linadi. Ichki nutq- insonning o'z ichiga murojat etgan nutqdir. U gapirilmaydi ham yozilmaydi ham. Ichki nutqda asosan alohida so'z va iboralar qo'llaniladi. Ichki nutq doirasida bolalar yangi bilimlarni o'zlashtiradilar, material yuzasidan fikr yuritadilar va og'zaki so'z yuritish hamda matn yozishga tayyorlanadilar: hayolda gap tuzadilar, so'ngra gapiradilar yoki yozadilar. Bunday tayyorgarlik natijasida o'quvchilar nutqining sifati yaxshilanadi. Shuning uchun o'quvchi bolalarga gapirish yoki yozishdan avval tayyorlanishni gapirish yoki yozishdan oldin gapiradiganlarni o'ylab ko'rishni, kerakli so'zlarni tanlashni, gaplarni tuzishni tavsiya qiladi.

Tashqi nutq- boshqalarga murojat etiladigan nutqdir. Tashqi nutq tovushlar yoki grafik belgilar vositasida ifodalaniladi. Tashqi nutq ikki tomonlama faoliyat bo'lib, nutqiy borliqlarni bayon etuvchi va qabul qiluvchilarni mavjud bo'lishini nazarda tutadi. Bayon etuvchi gapiradi yoki yozadi, qabul qiluvchi o'qiydi yoki eshitadi.

Tashqi nutq dialogik yoki monologik bo'lishi mumkin.

Dialogik, yoki so'zlashuv nutqda ikki yoki bir necha suhbatdoshlar orasidagi fikr-muloxazalarning yuritilishi nazarda tutiladi. Xayotning dastlabki yillarida normal eshituvchi bolalar dialogik nutq negizida ona tilini o'zlashtiradilar.

Bolalarning nutqi kattalar tomonidan berilgan savollarga javoblardan, turli faoliyat chog'ida kelib chiqqan qiyinchiliklarni yengish va o'z istaklarini qondirish maqsadida, bolalarning kattalarga bergan savol va istaklaridan tashkil topgan.

Nutqiy muloqot bolalar tomonidan xar xil gap turlari o'zlashtirilishi bilan, asosan taqlid qilib o'zlashtirilgan undov gaplar egallanishi bilan boshlanadi. Keyinchalik bolaning nutqida so'roq va darak gaplar paydo bo'ladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga til o'rgatish ham dastlab dialogik nutqni rivojlantirishdan boshlanadi. Sababi, dialogik nutq o'zlashtirish jihatdan osonroq va o'zaro muloqot o'rnatish jihatdan qulayroq hisoblanadi.

Dialogik nutqning xususiyatlari F.S. Vigotskiy, A.A. Leonev, A.R. Luriya, A.K. Markova, O.B. Sirotinina, L.V. Xerba, L.P. Yanubinskiy va boshka psixologik va tilshunos olimlar tomonidan o'rganilgan.

Dialogning asosiy belgilari bu suhbatdoshlarning navbatma-navbat gapirishidan iborat bo'lib, xar bir keyingi gap oldingi gap bilan bog'lanadi. Gaplar almashuvi bevosita mavjud bo'lgan vaziyat bilan bog'lik bo'lib, oldindan o'ylab ko'rmasdan va rejalashtirmasdan amalga oshiriladi. Dialogik yoyik gaplardan foydalanish zarurati bo'lmaydi, chunki dialogik mazmuni mavjud bo'lgan vaziyat, oxang, imo- ishoralar bilan to'ldiriladi.

Dialogik nutq turli faoliyat jarayonida vujudga kelib, kattalar va bolalar hamkorligidagi faoliyatda rivojlanib boradi. Jamoa bo'lib faoliyat ko'rsatish chog'ida nutq murakkablanib boradi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini o'stirish maqsadiga ma'lum vaziyatda paydo bo'ladigan dialogik va suhbat xizmat qiladi. Suhbat ma'lum maqsad va mavzu doirasida o'zlashtirilgan dialogdir. Suhbatda qisqa gaplar bilan bir qatorda keng boshlanishli xabarlar ham ishlatiladi. Dialogik bolalar tomonidan dastlab o'zlashtiriladigan sodda uslubdir.

Muloqatga kirishishni o'rganish jarayonida bolalar tomonidan o'zlashtirilayotgan lug'aviy material, daktil hamda og'zaki nutq uchun umumiy, negaki daktil nutqdagi barcha material og'zaki nutqni ko'ruv, eshituv orqali qabul qilish uchun ham zarur xisoblanadi. Lekin og'zaki nutqga o'qitishning ikkinchi yo'nalishi o'quvchilarda talaffuz shakllarini shakllantirish ham mavjud. Ish ikki yo'l orqali amalga oshiriladi. 1) Daktil nutq materialini bolalarga og'zaki talaffuz qilishiga undash bilan bog'lik. Ushbu talablar o'quvchilarda nutq xarakat aparatining faollashiga va so'zlarni to'g'ri talaffuziga yaqinlashishiga o'rgatish uchun xizmat qiladi. 2) Talaffuzga o'rgatishga sistematik ishni o'z ichiga oladi. Lekin bu holda nutqning shakllanishida muloqat vositasi bo'lib qolaveradi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maktabida so'zlashuv nutqga o'rgatish darslari maxsus dars sifatida dars jadvaliga kiritilmagan, lekin boshlang'ich sinflardagi barcha o'quv fanlarning mazmunini eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tilga o'qitish tizimi va prinsplarga binoan ularning so'zlashuv nutqini rivojlantirishga qaratilgan.

1-4 sinflarda nutqning (so'zlashuv) diologik shakliga quyidagi talablar qo'yiladi. Shu sinflar uchun mo'jallangan dasturda nutq faoliyatining 5ta muloqat turi amalga oshiriladi.

1) Bola o'qituvchining berayotgan savol, vazifa, topshiriq, murojatini tushunishi va bajarishi kerak.

2) O'quvchi o'qituvchiga, do'stlariga diolog shaklida murojat qilishi kerak (savol, iltimos, istak bilan).

3) O'quvchi savol berishi va boshqalarning bergan savoliga javob berishi (xar kanday mavzuda) kerak.

4) O'zining bajargan ishi tug'risida axborot berishi kerak.

5) Hamma mavzudagi diologda ishtirok etishi kerak.

Diolog tarkibida beriladigan eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki so'zlashuv nutqini tashkil etgan barcha gaplar asosan muloqatga undovchi mazmuni tashkil qiladi va ular quyidagi talablarga javob beradi.

1. Berilayotgan gap sodda va aniq inson faoliyati hamda xatti- xarakatlar bilan chambarchas bog'likdir.

2. Berilayotgan gap mazmunini bolaning kundalik xayotida uchraydigan narsa va xodisalar tashkil etadi.

3. Berilayotgan gaplar bolaning impressiv nutqini rivojlantirishi o'ziga qaratilgan nutqni diqqat bilan qabul qilishi kerak.

4. Berilayotgan gaplarni o'quvchilar oson va tezda eslab qoladilar.

Sanab o'tilgan vazifalar 1-4 sinflarda so'zlashuv nutqini rivojlantirish dasturida va daktil nutq bo'lishida tayorlov sinflarida amalga oshirishi nazarda tutilgan. Kar bolalar maktablarning tayorlov sinflarida o'quvchilar kommunikatsiya tamoyiliga asosan daktil nutq shakllarida o'qitiladi. 1-4 sinflarda bu og'zaki shakllarda olib boriladi. Yil sayin o'qitish bolalarning nutqiy faolligini rivojlantiradi va pedagoglarning ular o'rtasida muloqat yuritish uchun bajarayotgan ro'lini ancha kamayishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Haydarov, Islomjon, and Saminaxon Odiljonova. "KAR BOLALAR MAKTABLARIDA O 'QUVCHILARNING TALAFFUZINI SHAKLLANTIRISH VA ESHITISH IDROKINI RIVOJLANTIRISH BO 'YICHA KORREKSION MASHG 'ULOTLAR MAZMUNI VA ULARNING TASHKIL ETILISHI." *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика* 2.18 (2023): 103-106.

2. Hatamjon o'g'li, Haydarov Islomjon. "ESHITISH QOBILIYATINI BUZILISHI VA YO'QOTISH SABABLARI." *Conferencea* (2023): 83-86.

3. Hatamjon o'g'li, Haydarov Islomjon. "ENVIRONMENTAL EDUCATION OF HEARING-IMPAIRED PRESCHOOL CHILDREN BY SHAPING THEIR KNOWLEDGE OF NATURE." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 510-513.
4. Hatamjon o'g'li, Haydarov Islomjon. "EDUCATION OF STUDENTS WITH HEARING DEFECTS THROUGH SCIENCE LESSONS DEVELOPMENT OF SPEECH AND THINKING." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 837-844.